



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 272 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarlari	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALARINING TAHLILI



Islomov Shuhrat Marufjonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrası dotsenti



Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich

Samaraqnd iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
Elektron pochta: avazgarshiyev@yahoo.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish maqsadida asosiy faoliyatga yo'naltirilayotgan investitsiyalar tahlil qilingan. Xususan, davlatimiz tomonidan investitsiya uchun qulay muhit yaratish, ya'ni xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, moliya bozorida investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish va investorlarning huquqiy himoyasini ta'minlash natijasida sanoat korxonalaridagi asosiy vositalarning samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan. Shuningdek, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida sanoat korxona va tashkilotlarining asosiy vositalarni sotib olish uchun zarur bo'lgan mablag' miqdori prognozi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, investitsiya, asosiy kapital, sanoat, investitsion muhit, texnologiya, samaradorlik, modernizatsiya.

Abstract: The article analyzes investments in the core activities of industrial enterprises in order to increase their economic efficiency by increasing the level of equipment with fixed assets. In particular, the creation by the state of a favorable environment for investment, namely: ensuring the inviolability of private property, developing investment infrastructure in the financial market and legal protection of investors, contributed to increasing the efficiency of using fixed assets of industrial enterprises. It also considers the forecast of the amount of funds required by industrial enterprises and organizations to acquire fixed assets in order to increase industrial production volumes.

Key words: innovation, investment, fixed capital, industry, investment climate, technology, efficiency, modernization.

Аннотация: В статье анализируются инвестиции в основную деятельность промышленных предприятий с целью повышения их экономической эффективности за счёт повышения уровня оснащённости основными фондами. В частности, создание государством благоприятной среды для инвестирования, а именно: обеспечение неприкосновенности частной собственности, развитие инвестиционной инфраструктуры на финансовом рынке и правовая защита инвесторов, способствовало повышению эффективности использования основных фондов промышленных предприятий. Также рассматривается прогноз объёма средств, необходимых промышленным предприятиям и организациям для приобретения основных фондов в целях увеличения объёмов промышленного производства.

Ключевые слова: инновации, инвестиции, основной капитал, промышленность, инвестиционный климат, технологии, эффективность, модернизация.



KIRISH

Dunyo tajribasiga ko'ra, har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ularning ishlab chiqarish quvvatlarini yetarli darajada oshirish orqali erishiladi. Bu jarayonda umumiy hisobda asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar miqdori hamda uni rejalashtirish davlatning kelajakda amalga oshiradigan rejalarini aniqlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Asosan, sanoat korxonalariga kiritilayotgan investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mavjud eksportbop mahsulotlar sifatini yaxshilash yoki yangi xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. So'nggi yillarda yurtimizda sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilib, xorijiy hamda mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi davomi sifatida keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan, yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqildi.[1] Ushbu strategiyada sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarga oid quyidagi maqsadlar belgilangan:

— 22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish. Ushbu maqsadning qo'yilish sababi mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metallurgiya, transport kabi tarmoqlardagi 23 ta yirik korxona xalqaro kredit reytinglarini olish orqali ichki va tashqi moliyaviy bozorlarga mustaqil chiqib, investitsiya loyihalari uchun o'z mablag'ini jalb qilishini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqishdan iboratdir.

— 26-maqsad: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish. Ushbu maqsadning mazmuni investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida yangi tizimni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yurtimizda faol investitsiya siyosati sharoitida sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi ko'plab olimlarning e'tiborini tortib, ularning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritishga urinish kuzatilmoqda.

Jumladan, 2023-yilda Hoshimov o'zining "Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yaratilgan muhit va uning jozibadorlik darajasi"[3] maqolasida investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda xalqaro reyting va indeksni o'rganib, yalpi ichki mahsulot va xorijiy investitsiyalar hajmlarining o'zgarish tendensiyasini tahlil qilgan. Olim xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritish yurtimizdagi moliyaviy manbalar yetishmasligi sababli faoliyatini to'xtatib turgan sanoat va korxona tashkilotlarini ishga tushirish hamda shu orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shishi mumkin. Ilmiy izlanishdagi ba'zi to'liq yoritilmagan jihatlarni to'ldirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz: qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, moliya bozorlari va infratuzilmani rivojlantirish, sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish¹.

Norxo'jayeva va Akishova tomonidan bajarilgan ilmiy ishda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari o'rganilgan[4]. Biroq ushbu izlanishning kamchiligi shundaki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning afzalliklari aniq yoritilgan bo'lsa-da, mavjud muammolar va jalb qilingandan keyin yuzaga keladigan xavf-xatarlar haqida deyarli hech qanday mulohaza bildirilmagan. Masalan, qaysi sektorlar investitsiyalarni jalb qilishda ko'p hollarda qiyinchiliklarga duch kelayotgani, xorijiy investorlar sarmoya kiritgandan so'ng qancha muddatda foydaga chiqishi hamda sarmoyadorlarga qanday xavflar ta'sir qilishi masalalari to'liq yoritilmagan. Shu sababli kiritilayotgan umumiy investitsiyaning samaradorlik darajasini ekonometrik model asosida tahlil qilish zarur².

O'z maqolasida Abdullayev mamlakatimizda sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari va yo'llarini tahlil qilgan[5]. U xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni, balki zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasini ham investitsiya sifatida jalb etib, sanoat tizimini xalqaro standartlar

1 Hoshimov, R. (2023). Investment attractiveness of Uzbekistan: Current status and development prospects. Central Asian Economic Review, 11(4), 33-50.

2 Norxo'jayeva, G., & Akishova, N. (2023). Ways to attract foreign investment to the economy of Uzbekistan. Journal of Advanced Economics and Business, 8(3), 112-127



asosida ishlab chiqarish imkonini berishini ta'kidlagan. Mazkur tadqiqotdagi takliflarga qo'shilgan holda, biz unda ba'zi bo'shliqlar mavjudligini aniqladik. Ya'ni, qancha xorijiy investitsiya jalb qilingani yoki qaysi tarmoqlar eng ko'p sarmoya olgani haqida aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Shuningdek, agar tashqi investitsiya sarmoyadorlar uchun foydali bo'lsa, nega hozirga qadar kirib kelayotgan moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi investitsiyalar hajmi juda kam ekani kabi savollar ham ochiq qolgan³.

Dusanov va Mamasoliyeva tomonidan yozilgan "Enhancing foreign investment mechanisms for innovative development" [6] maqolasida milliy iqtisodiyotda innovatsiya faolligini oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mualliflar xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb etishda innovatsiya va yangiliklarning muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab, bu jarayon iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish hamda yangi texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishini qayd etgan. Maqolada faqat umumiy investitsiya muhiti emas, balki sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa sohalarda investitsiya jalb qilish imkoniyatlari ham yoritilgan. Investitsiyalar nafaqat moliyaviy jihatdan, balki texnologik rivojlanish uchun ham muhim ekani qayd etilgan. Biroq unda rivojlangan davlatlarda investitsiya jalb qilish bo'yicha qanday muvaffaqiyatli strategiyalar qo'llangani va ularni O'zbekistonda tatbiq etish imkoniyatlari keng yoritilmagan⁴.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardagi ma'lumotlarni boyitish hamda mavjud bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida biz O'zbekiston hududida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atini ekonometrik model asosida tahlil qilamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda sanoat ishlab chiqarish korxonalari tomonidan asosiy vositalarni sotib olish uchun zarur bo'lgan, tashqi va mahalliy manbalardan kiritiladigan investitsiyalarning agregat miqdorini tahlil qilish hamda uni kelajakda prognozlash bo'yicha izlanishlar olib borildi. Bunda monografik kuzatish, statistik abstraktsiya, mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullarini o'z ichiga olgan ilmiy izlanishlarga tizimli yondashuv keng qo'llanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida sanoat tarmog'ini prognoz qilishda additiv modeldan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir shaxs o'zi amalga oshirayotgan iqtisodiy faoliyat samarali kechishi va yakuniy natijaning foyda bilan qabul qilinishiga asosiy e'tiborni qaratadi. Xuddi shunday, davlatlar miqyosida ham iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida kiritilayotgan sarmoya turli reja va strategiyalar asosida amaliyotga tatbiq etilib, dastlabki qadam sifatida natijani prognozlashga uruniladi.

Sanoat ishlab chiqarish korxonalari tomonidan asosiy ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash murakkab jarayon bo'lib, samarali faoliyat yuritish uchun puxta rejalashtirish talab etiladi. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini strategik rejalashtirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining kelajagini prognozlash hamda uni izchil ravishda olib borishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, rejalashtirish va prognozlash sanoat sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar uchun quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- Rejalashtirilgan investitsiya oqimi iqtisodiy o'sishni muvozanatli amalga oshirishga yordam beradi. Inflyatsiya va budjet taqchilligining oldini olish uchun investitsiyalar aniq strategiyalar asosida jalb qilinadi.

- Rejalashtirilgan investitsiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltiriladi, natijada ishlab chiqarish hajmi ortadi. Sanoat va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

- Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, investitsiyalar zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishga yo'naltiriladi. Raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashadi va ilg'or ishlab chiqarish tizimlari shakllanadi.

- Investitsiyalar rejalashtirilganda mehnat resurslari samarali boshqariladi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Aholining iqtisodiy faolligi ortadi, ish bilan ta'minlanganlik darajasi oshadi.

- Rejalashtirilgan investitsion siyosat xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Raqobatbardosh soliq siyosati va investitsion imtiyozlar orqali xalqaro kapital oqimi jalb qilinadi.

Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarni prognozlash kelajakdagi sanoat ishlab chiqarishida yuzaga keladigan tendensiyalarni oldindan aniqlash, rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri belgilash hamda korxonalarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga imkon yaratadi (1-jadval).

3 Abdullayev, U. (2024). Foreign investment attraction in the industrial sector: Opportunities and challenges. Scientific Journal of Economics and Business, 15(2), 45-62.

4 Dusanov, A., & Mamasoliyeva, S. (2024). Enhancing foreign investment mechanisms for innovative development. Journal of Economic Research and Innovation, 6(1), 78-92. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1747>

1-Jadval. "Asosiy kapitalga"⁵ investitsiyalarning hajmi (choraklik, %)

Yillar	Choraklar (t)	Miqdorlar
2021	1	42007.1
	2	99767.4
	3	162209.7
	4	239552.6
2022	5	53937.4
	6	118707.7
	7	186924.1
	8	266240
2023	9	66969.6
	10	154150.3
	11	240917.9
	12	356071.4
2024	13	107060.8
	14	229334.8
	15	343085.9
	16	493652

Manba: Jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy sayti taqdim qilgan ma'lumotlaridan olingan. <https://www.stat.uz>.

Ushbu jadvalda mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi 2021-2024-yillar bo'yicha choraklik ma'lumotlari bo'lib, ushbu ma'lumotlardan foydalanib 2-jadvalni hosil qilamiz (2-jadval).

2-Jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (choraklik) prognozlash qiymatlari (2025-2026)⁶

№	Y (Miqdorlar)	To'rt chorak bo'yicha sirg'aluvchi	To'rt chorak bo'yicha sirg'aluvchi o'rtacha	Markazlashtirilgan sirg'aluvchi o'rtacha	Mavsumiy tarkibiy qism bahosi	S	T+E=Y-S	T=48634.8+17517.9*t
1	42007.1	-	-	-	-	-82360.7	124367.8	66152.7
2	99767.4	543536.8	135884.2	-	-	-27397.5	127164.9	83670.5
3	162209.7	555467.1	138866.8	137375.5	24834.2	23943.5	138266.2	101188.4
4	239552.6	574407.4	143601.9	141234.3	98318.3	85814.7	153737.9	118706.3
5	53937.4	599121.8	149780.5	146691.2	-92753.8	-82360.7	136298.1	136224.2
6	118707.7	625809.2	156452.3	153116.4	-34408.7	-27397.5	146105.2	153742.1
7	186924.1	638841.4	159710.4	158081.3	28842.8	23943.5	162980.6	171260.0
8	266240	674284	168571	164140.7	102099.3	85814.7	180425.3	188777.9
9	66969.6	728277.8	182069.5	175320.2	-108350.6	-82360.7	149330.3	206295.7
10	154150.3	818109.2	204527.3	193298.4	-39148.1	-27397.5	181547.8	223813.6
11	240917.9	858200.4	214550.1	209538.7	31379.2	23943.5	216974.4	241331.5
12	356071.4	933384.9	233346.2	223948.2	132123.2	85814.7	270256.7	258849.4

5 Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. Bunga barcha moliyalashtirish manbalaridan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida olingan.

6 Muallif excel dasturidan foydalanib jadvalni shakllantirgan.



№	Y (Miqdor)	To'rt chorak bo'yicha sirg'aluvchi	To'rt chorak bo'yicha sirg'aluvchi o'rtacha	Markazlashtirilgan sirg'aluvchi o'rtacha	Mavsumiy tarkibiy qism bahosi	S	T+E=Y-S	T=48634.8+17517.9*t
13	107060.8	1035552.9	258888.2	246117.2	-139056.4	-82360.7	189421.5	276367.3
14	229334.8	1173133.5	293283.4	276085.8	-46751.0	-27397.5	256732.3	293885.2
15	343085.9	-	-	-	-	23943.5	319142.4	311403.0
16	493652	-	-	-	-	85814.7	407837.3	328920.9
17	264078.1					-82360.7	346438.8	346438.8
18	336559.2					-27397.5	363956.7	363956.7
19	405418.1					23943.5	381474.6	381474.6
20	484807.1					85814.7	398992.5	398992.5
21	334149.6					-82360.7	416510.3	416510.3
22	406630.8					-27397.5	434028.2	434028.2
23	475489.6					23943.5	451546.1	451546.1
24	554878.7					85814.7	469064.0	469064.0

Manba: Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar 1-jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Bu yerda to'rt chorak bo'yicha sirg'aluvchi o'rtacha va markazlashgan sirg'uluvchi o'rtachalarni toish orqali S (S- choraklik tarkibiy qismi o'rtacha qimati) topiladi.

T- trend

Ye- xatolik

T= a+b*t

Bu yerda a hamda b ni topish uchun asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini asosiy omil va choraklar sonini ta'sir yetuvchi omil sifatida regression tahlil amalga oshirildi. Natijada (3-jadval):

a= 90.526875

b= 1.79095588235294

T=90.526875+1.79095588235294*t

3-jadval. S- choraklik tarkibiy qismi o'rtacha qimati.

Ko'rsatkichlar	Yillar	Choraklar			
		I	II	III	IV
	2021	-	-	24834.21	98318.29
	2022	-92753.75	-34408.7	28842.78	102099.3
	2023	-108350.625	-39148.1	31379.2	132123.2
	2024	-139056.425	-46751	-	-
Jami		-340160.8	-120308	85056.19	332540.9
O'rtacha		-85040.2	-30076.9	21264.05	83135.21
Mavsumiylik S		-82360.73047	-27397.5	23943.52	85814.68

Manba: Ushbu jadval "Excel" dasturi orqali choraklik tarkibiy qismi o'rtacha qimati(S)ni hisoblash orqali tuzildi

Bunda K-kariktirovka ya'ni to'g'irlovchi koeffitsiyent (4-jadval):



4-jadval. Sanoat miqdorini yillik qiymatlari (mlrd. so'm)

Yillar	Miqdorlar
2021	2685831,9
2022	3319384,9
2023	3900455,2
2024	5138543,9
2025	6147050,7
2026	7079689,3

Manba: Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar 2-jadvalda berilgan Miqdorlar(Y)ning yillik yig'indisi shaklidagi ko'rinishidir.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2026-yilga borib asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining puldagi ifodasi 7079689,3 mlrd. so'mni tashkil yetilishini prognoz qildik. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 2.6 martaga oshishi kuzatilar yekan (5-jadval).

5-jadval. Tahlil natijasida hosil bo'lgan prognozning yuqori va pastlik ehtimollik chegarasi⁷

Vaqt jadvali	Qiymatlar	Prognoz	Past ehtimollik chegarasi	Yuqori ehtimollik chegarasi
2021	543536.8			
2022	625809.2			
2023	818109.2			
2024	1173133.5	1173133.5	1173133.50	1173133.50
2025		1490862.5	1309966.59	1671758.48
2026		1771148.7	1584641.45	1957655.90

Agar tashqi omillar ta'siri qilmasa O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarning jami miqdori taqriban 2025-2026-yillarda mos ravishda 1490862.5 va 1771148.7 mlrd. so'mni tashkil yetadi. Yuqoridagi jadvalni yanada aniqroq ko'rinishi uchun grafik shaklda ifodalaymiz (1-rasm).



1-rasm. Prognozning yuqori va pastlik ehtimollik chegarasining jadvaldagi ko'rinishi

Umumiy prognoz bo'yicha shuni aytish mumkinki, sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning o'zgarish tendensiyasiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi.

⁷ Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar tadqiqotchining o'zi tomonidan "Exel" dasturida ishlash orqali hosil qilindi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu investitsion muhit mamlakatimizda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni jalb etish va to'g'ri joylashtirish, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan mablag'lar sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirishga, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga hamda mamlakatimizning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sanoat ishlab chiqarishga kiritilayotgan tashqi va mahalliy investitsiyalarni rejalashtirish hamda prognozlash muhim jarayon bo'lib, u faoliyat samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va yaratilayotgan mahsulot sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ishlab chiqarish rejalari real bo'lishi, bozor talablarini doimiy monitoring qilish va ularni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

Ikkinchidan, investitsiyalar yo'naltirilgan loyihalarda yuqori texnologiyali uskunalar va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish ehtiyojini maksimal darajada qondirish kerak.

Uchinchidan, xorijiy investorlar tomonidan beriladigan sarmoyalarni kengroq jalb etish uchun soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar va investitsion infratuzilmani rivojlantirish lozim.

To'rtinchidan, davlat-xususiy sheriklik korxonalarining faoliyat yuritish mexanizmlarini takomillashtirish orqali sanoat korxonalarining investitsiya imkoniyatlarini oshirish kerak.

Beshinchidan, investitsiya loyihalari amalga oshirilgandan keyingi bosqichda natijadorligini baholash va samaradorligini oshirish uchun doimiy monitoring tizimini shakllantirish zarur. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kiritilayotgan investitsiyalardan ham davlat, ham investorlar manfaatdor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, [Onlayn], <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, 06.10.2020 yildagi 601-son, [Onlayn], <https://lex.uz/docs/-5031963>
3. Hoshimov, R. (2023). Investment attractiveness of Uzbekistan: Current status and development prospects. Central Asian Economic Review, 11(4), 33-50. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1186>
4. Norxo'jayeva, G., & Akishova, N. (2023). Ways to attract foreign investment to the economy of Uzbekistan. Journal of Advanced Economics and Business, 8(3), 112-127. <https://bestpublication.org/index.php/jaj/article/view/9033>
5. Abdullayev U. (2024). Foreign investment attraction in the industrial sector: Opportunities and challenges. Scientific Journal of Economics and Business, 15(2), 45-62. <https://scientific-jl.org/mod/article/view/5315>
6. Dusanov, A., & Mamasoliyeva, S. (2024). Enhancing foreign investment mechanisms for innovative development. Journal of Economic Research and Innovation, 6(1), 78-92. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1747>
7. Bakirov, I. (2024). The impact of international investments on economic growth in Uzbekistan. Bulletin of Finance and Investment, 9(1), 21-39. <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/200>
8. Shavqiev E., "Industrial iqtisodiyot", darslik, Samarqand: "STEP-SELL" nashriyoti, 2023-yil, 368 bet.
9. Ortiqov A. "Sanoat iqtisodiyoti". Darslik.- T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2014.-304 b.
10. Muminov N.G. "Industrial iqtisodiyot": Darslik. I qism / T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, 2020., 261 bet.
11. <https://www.stat.uz> sayti.
12. <https://www.lex.uz> sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>